




International Scientific and Practical Conference on the
topic: "Sustainable Architecture – Challenges and
Achievement of the Present and Future"



SHAHARSOZLIKDA SALOMATLIK YO'LAKLARINI TASHKIL QILISH MASALALARI

Yergeshova O'g'iloy Seydilla qizi

*Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti, Toshkent, O'zbekiston.
dilinuryergeshova@gmail.com*

Annotatsiya. Inson salomatligi, uning harakatlanishi va qulayligini ta'minlash shaharsozlikni yanada barqarorlashtirish va rivojlantirish yo'lidagi muhim omildir. Butunjahon ekspertlarining ta'kidlashicha, inson salomatligi, uning atrof muhitdagi o'rni va harakatlanishi, yashash tarzi o'zaro uzviy bog'liq. Ushbu maqola "Shaharsozlik muhitida "Salomatlik yo'laklari"ni tashkil etish masalalari"ga qaratilgan. Bunda yurtimiz va xorij tajribalari tahlil qilinib, ushbu sohadagi yutuq va kamchiliklar ilmiy tomondan ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: shaharsozlik, salomatlik yo'laklari, terapevtik bog'lar, piyodalar yo'lagi, veloyo'laklar.

Asosiy qism. Zamonaviy shaharlarda sog'lom muhit yaratish, ekotizim yo'nalishlari tizimida shaharsozlik va landshaft arxitekturasini shahar landshaft urbanizmining konsepsiyalaridan biridir, shuning uchun ham shaharlarning yashil infratuzilmasini shakllantirishda, tabiatning murakkab yaxlit tizimini yaratishni yodga olish kerak bo'ladi. Bundan esa, barqaror shahar ekotizimini tashkil etuvchi urbanizatsiyalangan salomatlik yo'laklarining tarkibiy qoidalari kelib chiqishi mumkin.(1-rasm).

Shaharsozlik va landshaft arxitekturasini sohasida tabiiy landshaftlarning yaxlit tizimi shaharlar va metropolialarda yashil infratuzilmani shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yagona ekologik tarmoq yaratish zarurati har xil bo'lib, ularning funksional maqsadiga ko'ra hududlarni ko'kalamzorlashtirish muhim ahamiyatga egadir. Bu esa hozirgi va kelajakdagi barqaror va sog'lom shaharlarni shakllantirishning bir qismini tashkil qiladi.



1-rasm Salomatlik yo`laklari

O'zbekiston shaharsozligida "Salomatlik yo`laklari" tushunchasi 2020-yil 30-oktyabrdagi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning **"Sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi farmoni orqali kirib kelgan. Bunda asosan piyodalar va velosiped yo`laklari o`zaro uzviy holda shakllantirish; zamonaviy, energotejamkor yoritish tizimlari va yorug`lik qaytaruvchi, yo`laklarni boshlanishi, oralig`i va yakunini ko`rsatuvchi yo`l belgilari bilan ta'minlangan; nogironligi bo`lgan shaxslar uchun "to'siqsiz muhit" yaratilgan va sportni ommaviy targ`ib qiluvchi kichik streetworkout maydonchalarga ega bo`lishi ham nazarda tutilgan. Salomatlik o`laklari shaharning yashil infratuzilmasida ko`kalamzorlashtirishning ijtimoiy yo`naltirilgan ekologik toza tizimni shakllantirishda global tendentsiyani tavsiflaydi.

Hozir chet el tajribasi asosida salomatlik yo'laklari - sog'liqni saqlash muassasalarining terapevtik bog'lari mavjud. Amerika, Fransiya, Ispaniya, Singapur Yaponiya kabi mamalakatlarda terapevtik bog'lar keng qo'llaniladi. Terapevtik bog'lar – insonlarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun maxsus mo'ljallangan daraxt va butalar iborat bolgan bog'lar, shuningdek, tibbiyotda davolanish va reabilitatsiyadagi bemorlar uchun foydali makon bo'lib ham hisoblanadi. Daraxt va butazorlarning to'g'ri tanlangan assortimenti va ularning kompozitsion tashkil etilishi, jismoniy mashqlar uchun qulay hududni tanlash o`z o`rnida jismoniy faollikni ham oshiradi.

Terapevtik bog'lardagi salomatlik yo`laklarning joylashishi tibbiy muassasalar hududida va maqsad uchun mahsus mo'ljallangan bemorlar guruhlar salomatlik, ruhiy holatni yaxshilash, surunkali og'riqni kamaytirish, e'tiborni yaxshilash, stressni kamaytirish (otistik, psixiatrik, sil, onkologik va boshqa bemorlar) shifokorlar tomonidan davom etayotgan parvarishning muhim jihati sifatida tan olingan shifo va kasallikni davolashda ham keng foydalaniladi.

Globallashuv jarayonlarining ta'siri ostida shaharlarning iqtisodiy va ekologik yaxshilanishi, ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishi, shaharsozlikning rivoji, aholi uchun qulay shahar muhitini yaratish shaharsozlik bosh tarxini loyihalash shartlaridandir. Shuningdek, tabiiy iqlimiy omillarni ham shaharsozlik urbanizatsiyasini takomillashtirish uchun rejaga kiritish lozim bo`ladi.

Ho'sh aslida "Salomatlik yo`laklari" qanday bo`lishi kerak? Qanday qilib uni to'g'ri va qulay qilib yaratish lozim? Bu savollarga o`z qarashlarim va tahlil qilganlarim asosida javob beradigan bo'lsam, buni bir nechta bo`limchalarga bo`lib o`rganish lozim deb hisoblayman:

1. Piyoda va velosipedchilar uchun xavfsizlik: har bir tur harakatlanuvchilarining ajratilganligi; yoʻl kesishmalaridagi xavfsiz oʻtish uchun moʻljallanganligi; har bir tur uchun koʻchaning yoritilganlik darajasi yaxshiligi;

2. Foydalanish uchun qulayligi: chorraxalarda ergonomik qurilmalarni tartibga solinganligi; yoʻllarda koʻrsatkichlarning mavjudligi; nogironlarning oʻlchamlarini ham hisobga olinganligi; velosipedlarni ijaraga berish joylarining tashkil qilinganligi;

3. Harakatlanishda qulayligi: yoʻlaklarning soyaliligi; inson nisbatini hisobga olinganligi; muhandislik qurilmalarining toʻgʻri loyihalanganligi; velosipedlar va aravachalarni saqlab turish joylarining tashkil qilinganligi;

4. Faoliyat turlarining ajratilganligi: dam oluvchilar va kutuvchilar tez oʻtib ketuvchi va sayr qiluvchilar, bundan tashqari, velosipedda tez va sekin harakatlanayotganlarning oʻzaro ajratilganligi;

5. Bu faoliyat turlariga odamlarni qiziqtirish va ragʻbarlantirish: avtoturargohlardan holi hududligi; fasadlarning turlicha talqini; ushbu faoliyat bilan shugʻullanishni turlicha ragʻbatlantirish;



2-rasm. Sergeli tumanida barpo etilgan salomatlik yoʻlaklari.

Piyoda yurish joylari atamasi shahar muhiti ochiq maydonlarini, havfsiz va qulay aloqalar tizimini oʻz ichiga oladi. Shuningdek, fuqarolarning dam olishlari, ijtimoiy aloqalarida muhim roʻl oʻynaydi. Piyoda harakati yoʻlaklari- sogʻlomlashtirish yoʻlaklari, maʼrifiy, madaniy va koʻngilochar obyektlardagi piyodalar harakati, qisqa yoki uzoq muddatli dam olish joylarini oʻz ichiga oladi. Piyoda harakati faol harakatni ham, dam olish yoki kutish, aloqa oʻrnatish jarayonlarini ham oʻz ichiga oladi. Piyoda harakati turli nuqtai nazarlardan bir nechta guruh yoki turlarga boʻlinsada, turli uslubda tashkil qilinsada undagi asosiy jarayon bu “yurish” hisoblanadi.

Piyoda harakati yoʻlaklarini loyihalashda keksalar, imkoniyati cheklanganlar uchun harakatlanish qulayligiga ega toʻsiqsiz muhit yaratishga, sport bilan shugʻullanish imkoniyati mavjudligiga, faol yoki qisqa muddatli dam olish hududlarining tashkil etilishiga alohida ahamiyat berish kerak.

Piyoda hududlari, piyoda-transport koʻcha, maydonlari, ochiq maydonlar, alleya, bulvarlar, parklar, qirgʻoq boʻyi hududlari ham piyoda yurish yoʻlaklari tizimini tashkil qiladi. Shaharsozlik manbalarida piyoda yurish yoʻlaklari landshaft elementi sifatida tahlil qilinadi, biroq piyoda yurish yoʻlaklari shahar

miqyosida urbanistik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy jarayonlardagi hamda shahar strukturasida tutgan o'rni va ahamiyati bilan tavsiflanadi.

Ochiq maydonlar, piyoda yurish joylarini o'ziga xos bo'lgan bir qancha xarakterlariga ko'ra tizimlash mumkin: masshtab darajalariga ko'ra, shakliga qarab ochiq makonda rejalashtirilishi, transport va piyodalarni ajratish xususiyatlariga ko'ra, visual idrok etish bo'yicha, aholi uchun ijtimoiy qulaylik darajasi bo'yicha, ularning funksional qo'llanilishi bo'yicha.

Shahar markazlari ekologiyasining past ko'rsatkichlarini yaxshilashda to'g'ri loyihalangan va yaxshi saqlangan rejalashtirilgan yo'laklari "yashil o'pka" vazifasini bajaradi.

Piyoda yurish yo'laklari sifati va qulayliklariga qarab, ularni baholash mezonlarini aniqlash mumkin.


1. Piyoda yo'laklarning utilitar jihatlar. Hudud relyefini qoplamalar orqali qoplashda yer qoplamalarining sifatiga ahamiyat berish kerak. Daraxtlar bilan himoya to'siqlarini, bordyurlarni, drenajlarni kompleks tashkil qilishni ham utilitar jihatni o'z ichiga oladi. Qoplamalarning xususiyatlari hududlarni rejalashtirish va funksional loyihalashga, arxitekturaviy hamda tabiiy muhitga to'liq mos kelishi kerak, turli ob-havo sharoitida muhitni ekologik jihatdan himoyasini ta'minlash, yoritish elementlaridan to'g'ri foydalanish maydon muhitida harakatlanishni osonlashtiradi. Shuningdek, orientatsiyani belgilashga xizmat qiluvchi ko'rsatkichli belgilar piyoda yo'laklarining hududiy farqlanishini ta'minlaydi.

2. Piyoda yo'laklarining arxitekturaviy-badiiy xususiyatlari. Atrof muhitdagi binolarning yagona uslubga keltirilishi piyoda yo'laklarining yaxlit mujassamlarni tashkil qiladi. Ma'lumot beruvchi reklama, obyektlar, dekorlar, audio-video moslamalari va shu kabilar harakatning davomini aniqlashda, hududning badiiy qiyofasini to'liq ko'rishga xizmat qiladi.

3. Piyoda yo'laklarining ekologik jihatlar. Piyoda yo'llarining orientatsiyasini to'g'ri tanlash, namlik va harorat mo'tadilligini, insolyatsiyani to'g'ri bo'lishini barcha mavsumlarda ham foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Piyoda yo'llarining transportdan, shovqindan, sanoat hududlari ta'siridan himoyalanganligi ulardan istalgan vaqtda ham foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, piyoda yo'llarining ko'kalamzor hududining sifati va to'g'ri tashkil etilganligi ekologik qulaylikni ta'minlaydi.

4. Piyoda yo'laklarining ijtimoiy-funksional jihatlar. Aholining barcha ijtimoiy qatlami uchun qulaylik to'liq ta'minlanganligi ya'ni imkoniyati cheklanganlar, bolalar va keksa yoshdagilar uchun ham sayr qilish, dam olish imkoniyatlari yaratilganlik darajasi ijtimoiy-funksional xususiyatlari hisoblanadi. Piyoda yo'llarining fazoviy va me'moriy shakllar bilan boyitilganligi va uning kengligi harakatlanuvchilar orasida ijtimoiy masofa saqlash, shuningdek, ijtimoiy

A.V. Efimov. Shahar piyoda yo'laklarini masshtab darajasiga ko'ra turlarga bo'lishi



aloqalar o'rnatilishini yaxshilashga xizmat qiladi. Qisqacha qilib aytganda, yuqoridagi omillar piyoda yo'laklarini rejalashtirish, loyihalash, rekonstruksiya qilishda ahamiyatga olinishi zarur bo'lib, foydalanishni cheklab yaroqsiz holga kelishini oldini oladi. Masalan, Koreyaning Seul shahridagi Seoull 7017 nomli estakadasi. Ushbu estakada o'tgan asrning 70 yillarida qurilgan va 2017 yil piyodalar yo'laklari sifatida qayta rekonstruksiya qilingan. Yerdan 16 metr balandlikdagi beton ustunlar ko'pgina mexmonxona va do'konlar bilan yakun topadi va estakadaning ustidagi yashil hududdabotanika bog'i tashkil qilingan- nihollar ekilib kelajakda ularni ko'chirib o'tkazish imkonini beradi. Ya'na bir antiqa jihati shundaki, u tunda turli hil yorqin ranglarga kira oladi.(3-rasm)

Piyoda yo'llarini loyihalashtirishda uning qaysi turga mansubligini hisobga olish lozim. Ya'ni transport vositalari butunlay yoki qisman cheklanganligi, faqat piyoda harakatlanishi uchun mo'ljallanganligiga, velosiped, skeytlar va skuterlar harakatiga ruxsat etiladigan piyoda yo'laklariga qarab rejalashtirilishi lozim. Ba'zi davlatlarda piyoda yo'laklari o'z xususiyatlariga ko'ra toifalarga bo'lingan bo'lsa, ba'zi hududlarda ular hech qanday qoidalarsiz tashkil qilingan. Yaqin Sharqning ba'zi davlatlarida piyoda yo'laklarida avtotransport vositalaridan butkul foydalanilmasada g'ildirakli transport vositalari masalan qo'lda boshqariladigan ot aravalar xizmatida foydalaniladi. Bu ekologik toza va xavfsiz transport bo'lsada, piyodalar harakatidan ajralishni talab qiladi.

Jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda ham avtotransport vositalari huquq va imkoniyatlari piyoda aholisi manfaatlaridan ustun qo'yilgan. Bu holatni to'g'irlash amaldagi qonunlar bilan bog'liq.



3-Rasm “Seoullo 7017” nomidagi estakada.

Aholi gavjum joylarda, shaharlarda, tarixiy shahar markazlarida piyoda yo'llarini tashkil qilishda hudud imkoniyatlari bilan birgalikda aholining fikrini ham inobatga olish lozim. Piyoda yo'llari uzun yoki keng atrof-muhit bilan aloqani o'rnatishi bilan cheklanib qolmay, piyodalar manzillarini yaqin qilishi ham zarur omildir.

Veloyo`laklar. Hozirgi kunda avtomobilizatsiya darajasining o'sishi bilan bir qatorda, ko'pgina rivojlangan mamlakatlar (xususan AQSH, Xitoy, Yaponiya, Niderlandiya kabi) da har 1000 axoliga 600 avtomobil tog'ri keladi. Ammo shu kabi mamlakatlarda velosipedning o'rni ham yuqori turadi, har 1000 axoliga 400 velosiped. Shu bilan birga yaqin sharq mamlakatlarining rivojlanayotgan yoki rivojlangan shaharlarida bu ko'rsatkich undanda yuqoriligi bilan ajralib turadi (Vetnam Xanoye shahrida 1000/480 Xoshimin shahrida 1000/530). Kunning tig'iz vaqtlarida ayrim markaziy ko'chalardan velosipedning harakatlanish oqimi 5-15ming/soatga yetadi.

Rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa Yevropa veloyo`laklar qurish va uni hayotga keng tadbqiq qilish bo'yicha yetakchilikni saqlab turibdi. Yevropada qariyb 50% aholisi kundalik hayotda velosipedlardan foydalanishadi. Ular uchun hattoki noodatiy veloyolaklar yechimlari ham topilgan. Masalan *GATESHEAD MILLENIUM BRIDGE* ko`prigi, *SOLA ROAD* veloyo`laklarini keltirish mumkin.

Gateshead Millenium Bridge ko`prigi faqat piyoda va velosipedchilar uchun mo`ljallangan bo`lib 2001-yilda Buyuk Britaniyaning Geytsxed shaxrida Tayn daryosining ustida barpo etilgan va ushbu ko`prikning originalligi shundaki yurishyo`laklari tepaga ko`tarilib daryoda harakatlanayotgan kemalarni o`tkazib yubora oladi va bu bir necha daqiqagina vaqttni oladi.



Tan olib aytish joizki, so`ngi yillarda mamlakatimizda veloyo`laklarga katta ahamiyat qaratilayotgan bo`lsada, hali qilinishi lozim bo`lgan ishlar talaygina. Normativ hujjatlarda veloyo`laklarning avtotransport va piyodalardan ajratilishi ko`zda tutilgan bo`lsa, ammo amaliyotda

veloyo`laklarning talab darajasida emasligini aniq ko`rishimiz, ularning noqulayliklarini sezishimiz mumkin.

Xulosa. O`zbekistonda salomatlik yo`laklarining shakllanishi va rivojlanishi yuqorida keltirib o`tilgan yondashuvlar asosida va aniq asoslangan konseptsiyalarda amalga oshirilishi lozim. Bunda o`zaro aloqani va uzviylikni yaratish, ularga alohida-alohida qarash emas balki yaxlit bir tizimni shakllantirish muhimdir. Har bir tuman va chekka chekka qishloqlarda tashkil etilishi ko`zda tutilgan. Salomatlik yo`laklari"-har bir hududda alohida sog`lomlashtiruvchi ochiq muhit shakllantirishga, hamda, insonlarda atrof muhitning zararli ta`sirini kamaytirishga qaratilgandir. Bunda albatta jahon tajribasidan kelib chiqib, o`z hududimizga moslashtirishimiz lozim.

Adabiyotlar ro`yhati:

1. 30.10.2020 yildagi PF 6099-sonli "Sog`lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi prezident farmoni
2. Про велодорожки сказано в Указе Президента Республики Узбекистан № РР-2583 «О мерах по созданию и развитию велодорожек», от 29 декабря 2016 года.
3. Велев П. С. Пешеходные пространства городских центров: пер. с болг. М.: Стройиздат, 1983. С. 10-11, 14-15.
4. <https://ais.by/article/opyt-formirovaniya-gorodskih-peshehodnyh-prostranstv>.
5. Вагнер, Е.А. Процессы урбанизации и развитие пешеходных коммуникаций (на примере формирования городов центральной Европы, России и планировочных зон г. Красноярск) [Электронный ресурс] /Е.А. Вагнер // Архитектон: известия вузов. – 2012. – N 38. – Режим доступа: http://archvuz.ru/2012_2/1
6. <https://4.bp.blogspot.com/-w-ScuWt1o58/Gateshead-Millennium-Bridge-2.jpg>.